

**Vasiylik va homiylik organining voyaga yetmaganlar mulkiy huquqlarini
amalga oshirishdagi roli va ahamiyati****Abdumurodova Guliruxsor Abdumalik qizi**Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes
huquqi yo'nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada vasiylik va homiylik organlarining voyaga yetmaganlar mulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda vasiy va homiylarning ushbu jarayondagi huquq va majburiyatlari, ularning mol-mulkni boshqarishdagi vakolatlari, shuningdek, ushbu vakolatlarni suiiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy mexanizmlar milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: vasiy, homiy, vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar, mol-mulk.

Ma'lumki, ota-onasi qaramog'ida bo'lgan, ular bilan birga yashovchi voyaga yetmagan bolalarning mol-mulki, odatda, ota-onalari tomonidan boshqariladi. Biroq, turli sabablarga ko'ra ota-onasi bo'lmagan yoki ota-onasi sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum etilgan, farzandlikka olinmagan bolalar ham mavjud. Ana shunday holatlarda voyaga yetmaganlarning mol-mulkini boshqarish, uni asrash va ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilish vazifasi vasiy va homiylar zimmasiga yuklatiladi. Ularning faoliyatini esa maxsus davlat organi — vasiylik va homiylik organlari muvofiqlashtiradi hamda nazorat qiladi.

Vasiylik institutining asosiy maqsadi — voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mol-mulkiga nisbatan uchinchi shaxslarning noqonuniy aralashuvlarining oldini olishdan iboratdir. Ayniqsa, bolalar hali to'liq huquqiy layoqatga ega bo'lmagan subyekt sifatida mustaqil tarzda mol-mulkni boshqarish, undan



foydalanish va uni tasarruf etishda qatnasha olmasligi sababli bu mas'uliyatli vazifa voyaga yetgan, huquqiy mas'uliyatni anglay oladigan shaxslarga — vasiylarga topshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, vasiylik konsepsiyasi bolalarning o'z mol-mulkini mustaqil boshqara olmayotganligini inobatga olgan holda, bu mol-mulkni bola manfaatlarini ko'zlab boshqarishni ta'minlash maqsadida joriy qilingan. Shu bilan birga, vasiy tomonidan bajariladigan harakatlar qonunchilikka muvofiq tarzda, bolaning manfaatlariga zid bo'lmagan holda amalga oshirilishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bolalar turli yo'llar bilan mol-mulkka ega bo'lishlari mumkin: meros, hadya orqali mol-mulkka egalik qilish, stipendiya, mukofotlar, shuningdek o'z mehnati evaziga topilgan daromadlar evaziga. Ushbu mol-mulkni boshqarishda asosiy mezon — bu “bolaning eng yaxshi manfaatlarini” prinsipidir. Bu prinsip xalqaro huquqiy hujjatlarda, xususan, BMTning “Bola huquqlari to'g'risida”gi konvensiyasida o'z aksini topgan bo'lib, har qanday qaror yoki harakat avvalo bolalarning ruhiy, ijtimoiy va moddiy farovonligini ta'minlashga yo'naltirilishi lozimligini bildiradi.

Vasiylik to'g'risida huquqshunoslar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Jumladan, N. M. Yershova vasiylar va homiylarni o'zlarining huquq va manfaatlarini himoyalashiga muhtoj bo'lgan bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish maqsadidagi, homiylikning barcha ko'rinishlarini o'z ichiga olgan oila va fuqarolik huquqining kompleks bo'limi sifatida ta'riflaydi¹.

Fuqarolik kodeksining 32-moddasi vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqatli bo'lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanishini² nazarda tutadi. Voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlarini vasiy va homiylar tomonidan boshqarilishida ham ularning yoshi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, agar bola 14 yoshga to'lmagan bo'lsa, u holda uning mulkiy manfaatlarini

¹ Юлдашева Ш. Р. “Фуқаролик ва оила ҳуқуқида васийлик ва ҳомийликнинг моҳияти, уни амалга ошириш усуллари”. Дис. ... юридик фан.ном. Тошкент – 2005. 23-бет.

² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 32-moddasi, 21.12.1995. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son //



himoya qilish, mol-mulkini boshqarish va u bilan bog'liq bitimlarni tuzish bo'yicha vakolatlar vasiy tomonidan amalga oshiriladi. Aksincha, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan, ya'ni cheklangan muomala layoqatiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarning huquqiy manfaatlariga homiy tomonidan yordam ko'rsatiladi. Bu yondashuv bolaning huquqiy holatiga qarab unga nisbatan qo'llaniladigan himoya mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, vasiylar o'z qaramog'idagi bolalarning mol-mulkini boshqarishda katta mas'uliyatga egadirlar va ushbu mulkni oqilona boshqarish bolalarning farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalar huquqiy jihatdan mustaqil ravishda yuridik harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lmagani sababli bu masalaning dolzarbligi yanada ortadi. Mulkning oqilona boshqarilishi orqali bolalarning ta'lim, sog'liq va boshqa asosiy ehtiyojlari uchun sarflanishi ta'minlanadi. Shuningdek, shaffof va hisobdor boshqaruv vasiy bilan bola o'rtasida ishonch uyg'otadi, ayniqsa bola voyaga yetib, o'z huquqlarini anglay boshlagan davrda, shuningdek, vasiylik vakolatlarining suiiste'mol qilinishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Bu holatda vasiy Fuqarolik kodeksida belgilangan qoidalar asosida bolaning eng yaxshi manfaatlarini ko'zlagan holda harakat qiluvchi menejer sifatida ish tutishi kerak.

Qonunchilikda ham vasiyga yuklatilgan majburiyatlar ichida mulkiy munosabatlar muhim o'rin egallaydi. Buni “Vasiylik va homiylik to'g'risida”gi Qonunning 7-bobi vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilishga qaratilganligidan anglash mumkin. Mazkur qonunning 32-moddasida o'z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning o'zlariga topshirilgan mol-mulkini asrab-avaylashi, mol-mulkning qiymati pasayishiga yo'l qo'ymasligi hamda undan foyda chiqarishga imkon tug'dirmasligi vasiyning asosiy majburiyatlari sifatida keltirilgan³. Bu, avvalo, vasiylarning vasiylikdagi shaxslar mol-mulkining but saqlanishi va kelgusida ularning manfaatlarini yo'lida foydalanilishi uchun shaxsan javobgar ekanligini anglatadi.

³ O'zbekiston Respublikasining Qonuni 32-moddasi, 02.01.2014 yildagi “Vasiylik va homiylik to'g'risida” O'RQ-364-son //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son //



Shuningdek, vasiylik va homiylik instituti mazkur mol-mulkning qiymatini tushirishi mumkin bo'lgan har qanday noxush holatlarning oldini olishga qaratilgan ehtiyotkorlik choralarini ko'rishni nazarda tutadi. Vasiylar mol-mulkni buzilish, talofat, noqonuniy foydalanish yoki iqtisodiy qiymatining pasayishidan himoya qilishi, uning huquqiy maqomini saqlab qolishi shart. Agar vasiyning yoki homiyning harakatlari natijasida ushbu mol-mulkning qiymati pasayishi xavfi yuzaga kelsa, bunday hollarda albatta vasiylik va homiylik organlarining oldindan ruxsatini olish talab etiladi. Xususan:

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning manfaatlarini ko'zlab berilgan da'vodan voz kechilganda;

sud muhokamasida vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan kelishuv bitimini tuzishda;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs da'vogari bo'lgan ijro ishini yuritish bo'yicha qarzdor bilan kelishuv bitimini tuzishda vasiylik va homiylik organlarining ruxsati talab etiladi⁴.

Vasiylar va homiylar zimmasidagi asosiy majburiyatlardan biri — ular homiylik yoki vasiylik ostidagi voyaga yetmagan shaxslarning mol-mulkini boshqarish chog'ida olingan daromadlar va mavjud mablag'lardan mazkur shaxslarning ehtiyojlari uchun oqilona va maqsadli foydalanishdir. Xususan, ushbu mablag'lar, eng avvalo, voyaga yetmagan shaxsning kundalik turmush xarajatlari, sog'lig'i, ta'limi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim.

Bu norma vasiyga mol-mulkni boshqarish huquqi berilgan bo'lsa-da, ushbu vakolatdan shaxsiy manfaat yo'lida emas, balki faqatgina vasiylik ostidagi shaxsning qonuniy manfaatlarini ko'zlab foydalanishni belgilaydi.

Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi — vasiylik vakolatining suiiste'mol qilinishining oldini olish, ya'ni vasiy mol-mulkni o'zining shaxsiy maqsadlarida emas, balki to'liq ravishda vasiylik ostidagi shaxsning manfaatlari uchun boshqarishi lozimligini

⁴ O'zbekiston Respublikasining Qonuni 37-moddasi, 02.01.2014 yildagi “Vasiylik va homiylik to'g'risida” O'RQ-364-son //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son //



belgilashdir. Daromadlar manbai bo'lgan mol-mulk bolaniki bo'lganligi sababli, undan olingan har qanday foyda ham aynan bolaga tegishli bo'ladi va uni boshqa yo'nalishlarda sarflash qat'iyman etiladi.

Shu bilan birga, bu me'yoriy vasiylarning o'zlariga ishonib topshirilgan mulkni boshqarishda halollik, vijdonlilik va mas'uliyat asosida harakat qilishini taqozo etadi.

“Vasiylik va homiylik to'g'risida”gi Qonun 34-moddasi vasiylik va homiylik munosabatlarining huquqiy chegarasini belgilab, har ikki tomonning mulkiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan. Unga ko'ra, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar vasiylarning yoki homiylarning mol-mulkiga nisbatan, vasiylar yoki homiylar esa, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkiga, shu jumladan alimentlar, pensiyalar, nafaqalar summalariga hamda boshqa ijtimoiy to'lovlarga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lmaydi⁵. Normani vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga kiruvchi voyaga yetmaganlar huquqlari bo'yicha sharhlaydigan bo'lsak, voyaga yetmaganlarga vasiy yoki homiy tayinlanishi ularga o'z vasiysi yoki homiysiga tegishli bo'lgan mol-mulkiga nisbatan mulkiy huquqlarni keltirib chiqarmaydi. Bu o'z navbatida, homiy va vasiylarning ular qaramog'ida bo'lgan bolalarning mulkiy huquqlariga egalik qila olmasligini ham nazarda tutadi. Ushbu moddaning to'rtinchi qismida vasiylarga yoki homiylarga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkidan o'zlarining manfaatlari yo'lida foydalanish taqiqlanishi bu sohada voyaga yetmaganlarning mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida vasiy va homiylarning huquqlari cheklanganligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, vasiylar o'z vasiylikdagi shaxslarning pul mablag'larini banklarga va boshqa kredit tashkilotlariga qo'yish huquqiga ega. Biroq, vasiylikdagi shaxsning ta'minoti uchun ushbu pullarni ishlatishga to'g'ri kelishi mumkin. Bu vaziyatda vasiylar qonunchilikda belgilanganidek, vasiylik va homiylik organining yozma ruxsatiga ko'ra amalga oshirishi mumkin. Bu norma faqat vasiylik tayinlangan shaxslar ta'minoti uchun

⁵ O'zbekiston Respublikasining Qonuni 34-moddasi, 02.01.2014 yildagi “Vasiylik va homiylik to'g'risida” O'RQ-364-son //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son //



sarflanishi kerakligini ta'kidlaydi. Xuddi shunday qoida Ukraina Respublikasining Fuqarolik kodeksi 32-moddasida ham belgilab qo'yilgan⁶.

Vasiy, vasiylikka olingan shaxs nomidan bitimlar tuzishga haqli bo'lsa-da, ushbu bitimlar voyaga yetmagan shaxsning mulkiy manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hollarda, u faqat vasiylik va homiylik organlarining roziligi asosida harakat qilishi shart. Bu talab voyaga yetmaganlarning mol-mulkiga nisbatan asossiz zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan huquqiy kafolatdir. “Vasiylik va homiylik to'g'risida”gi qonun 37-moddasida vasiy quyidagi harakatlarni bajarishda vasiylik va homiylik organlarining ruxsati talab etilishi belgilangan:

vasiylikdagi shaxs nomidan notarial tartibda tasdiqlanishi lozim bo'lgan bitimlar tuzishda;

mol-mulkni taqsimlashda;

vasiylikdagi shaxsning mol-mulkini bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga garovga berishda;

vasiylikdagi shaxsning turar joyini ayirboshlashda;

vasiylikdagi shaxs nomidan meros va (yoki) hadya olishdan voz kechishda⁷.

Shunga o'xshash tartib Germaniya Federativ Respublikasining Fuqarolik kodeksida (BGB) ham nazarda tutilgan bo'lib, 1821 va 1822-moddalarga muvofiq, vasiy (vasiyning o'rnini bosuvchi shaxs) voyaga yetmagan nomidan ayrim muhim bitimlarni tuzishdan avval oilaviy masalalar bo'yicha vakolatli sud (Familiengericht)ning ruxsatini olishi shart. Bunday bitimlarga yer uchastkasi yoki boshqa ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni tasarruf etish, merosdan voz kechish va boshqa mol-mulkka oid muhim bitimlar kiradi⁸.

Vasiy va homiylarning voyaga yetmaganlar mulkiy huquqlarini boshqarish faoliyatida mazkur cheklovlarning mavjudligi — bolaning mulkiy huquqlariga daxl

⁶ Цивільний кодекс України Стаття 32. <https://uristy.ua/laws/civilnij-kodeks-ukraini/glava-4-statta-32>

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni 37-moddasi, 02.01.2014 yildagi “Vasiylik va homiylik to'g'risida” O'RQ-364-son //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son //

⁸ German Civil Code (BGB). Section 1821-1822. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html#p7021



qiluvchi har qanday harakatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashishni ta'minlaydi. Ayniqsa, mol-mulkni garovga qo'yish, merosdan voz kechish yoki turar joyni ayirboshlash kabi huquqiy oqibatlari chuqur bo'lgan bitimlar vasiylik ostidagi shaxsning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, har bir bunday harakat vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan amalga oshirilishi orqali bolaning manfaatlari ustuvor darajada ko'rib chiqiladi va himoya qilinadi.

Shu bilan birga, bu tartib vasiylarning faoliyatini qonuniy asosda nazorat qilish imkonini yaratadi. Vasiylikdagi shaxsning mol-mulkiga doir muhim qarorlar davlat organining nazoratisiz amalga oshirilmasligi, mol-mulkning saqlanishi va undan oqilona foydalanilishini kafolatlaydi. Bunday yondashuv huquqiy jihatdan yetarlicha asoslangan bo'lib, bolaning huquqiy va ijtimoiy manfaatlarini kompleks ravishda himoya qilishga xizmat qiladi.

Agar vasiy qonunchilikda belgilangan tartibga rioya etmasdan, vasiylik va homiylik organining yozma ruxsatisiz, aslida esa bunday ruxsat bo'lishi shart bo'lgan bitimlarni voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxs nomidan tuzgan bo'lsa, bu harakat qonunbuzarlik hisoblanib, vasiylik va homiylik organi bu haqida xabar topgan zahoti, vasiylikdagi shaxsning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida zudlik bilan sudga murojaat etishi lozim. Vasiylik va homiylik organining bu majburiyati Qonunning 38-moddasi bilan huquqiy tartibga solinadi. Unga ko'ra, vasiylik va homiylik organi ruxsatisiz tuzilgan mazkur bitim haqiqiy emas deb topilib, bitimning haqiqiy emasligi to'g'risidagi qoidalarga asosan, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga tegishli bo'lgan mol-mulk unga qaytarilib, shartnoma taraflariga yetkazilgan zarar vasiy va homiy tomonidan qoplanadi. Mazkur norma, avvalo, vasiylik ostida bo'lgan shaxslarning moliyaviy va huquqiy manfaatlarini suiiste'molchilikdan himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur huquqiy tartib vasiylik va homiylik organining nazorat va himoya funksiyasi naqadar muhim ekanligini yaqqol namoyon etadi. Zero, vasiy tomonidan amalga oshirilgan har qanday huquqiy harakatlar, ayniqsa mol-mulk bilan bog'liq bitimlar,



vasiylikdagi shaxs manfaatlariga zarar yetkazmasligi va qonuniy asosga ega bo‘lishi zarur.

Mulkiy munosabatlar sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi va suiiste’mollik holatlarining oldini olish maqsadida amaldagi qonunchilikda yana bir muhim cheklov nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, vasiy yoki homiy, shuningdek ularning turmush o‘rtoqlari va yaqin qarindoshlari, vasiylik yoki homiylikdagi shaxs bilan hech qanday bitim tuzishga haqli emaslar. Bundan tashqari, ular ushbu shaxslar bilan bog‘liq sud ishlarida — xususan, vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning turmush o‘rtog‘i yoki qarindoshlari bilan bo‘ladigan nizolar bo‘yicha — vakil sifatida ishtirok eta olmaydilar⁹”. Bunday taqiqning asosiy sababi – bu holatda vasiylikka olingan shaxsning manfaatlariga zarar ko‘rishi va aksincha, vasiy yoki unga yaqin kishilarning shaxsiy manfaatlariga ustuvor qo‘yilishi xavfidir. Ushbu cheklovlar manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va vasiylik va homiylik ostidagi shaxsning huquq va manfaatlarini to‘liq himoya qilishga qaratilgan.

Shu bilan birga, qonun ushbu qoidaga istisno holatni ham nazarda tutadi. Ya’ni, vasiy, homiy yoki yaqin qarindoshlar tomonidan vasiylikdagi shaxsga mol-mulkni hadya qilish yoki uni tekin asosida berish holatlariga yo‘l qo‘yiladi. Bu esa voyaga yetmagan shaxsning manfaatlarini buzmasdan, aksincha, ularning moddiy holatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, huquqiy jihatdan maqbul hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, 18 yoshgacha bo‘lgan yetim bolalar hamda ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilishda vasiylik va homiylik instituti muhim o‘rin egallaydi. Xususan, vasiylar 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning, homiylar esa 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning mol-mulkini boshqarishda va ularning huquqiy manfaatlarini ta’minlashda asosiy subyekt sifatida maydonga chiqadi. Ularning faoliyatini

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.09.2014 yildagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida” VMQ-269-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 09/24/893/1088-son //



muvofiglashtiruvchi va nazorat qiluvchi vakolatli davlat organi — vasiylik va homiylik organi esa ushbu munosabatlarda qonuniylik va shaffoflikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan kelib chiqadiki, ushbu institut orqali voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari buzilishining oldi olinadi, mol-mulkni noto'g'ri boshqarish yoki suiiste'mol holatlariga qarshi huquqiy kafolat yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 21.12.1995. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son //
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.01.2014 yildagi “Vasiylik va homiylik to'g'risida” O'RQ-364-son //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son //
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.09.2014 yildagi “Vasiylik va homiylik to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida” VMQ-269-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 09/24/893/1088-son //
4. German Civil Code (BGB).
https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html#p7021
5. Цивільний кодекс України.
<https://uristy.ua/laws/civilnij-kodeks-ukraini/glava-4-statta-32>
6. Юлдашева Ш. Р. “Фуқаролик ва оила ҳуқуқида васийлик ва ҳомийликнинг моҳияти, уни амалга ошириш усуллари”. Дис. ... юридик фан.ном. Тошкент – 2005. 23-бет.